



**BADIIY MATNDA NOVERBAL  
VOSITALARNING O'RNI**

**Shuhratova Maxfuza Azizbek qizi**

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

**Toirova Guli Ibragimovna**

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası  
professori

Filologiya fanlar doktori

Tel.raqam : +998902993417

e-mail : [tugulijon@mail.ru](mailto:tugulijon@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola imo-ishoralarni o'rganuvchi paralingvistika sohasiga bag'ishlangan bo'lib, noverbal vositalar va ularning semalari badiiy asarlar misolida tushuntirib berilgan. Shuningdek, imo-ishoralarning badiiy asarda personaj xarakterini ifodalashdagi ahamiyati, muloqotda unga bo'lgan ehtiyoj ham o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** paralingvistika, imo-ishora, noverbal vositalar, kinestika, vokalika, fizik xarakteristka, xaptika, proksemika, xronomika, artefakt, olfaktika, estetika, personaj.

**Abstract:** This article is devoted to the field of paralinguistics, which studies gestures, and non-verbal means and their meanings are explained on the example of works of art. Also, the importance of gestures in expressing the character of a character in an artistic work, the need for it in communication is also reflected.

**Key words:** paralinguistics, gesture, nonverbal means, kinesthetics, vocalics, physical characteristics, haptics, proxemics, chronomics, artifact, olfactory, aesthetics, character.

**Аннотация:** Данная статья посвящена области паралингвистики, изучающей жесты и невербальные средства, а их значения объясняются на примере произведений искусства. Также отражено значение жеста в выражении характера персонажа в художественном произведении, необходимость его в общении.

**Ключевые слова:** паралингвистика, жест, невербальные средства, кинестетика, вокалика, физические характеристики, гаптика, проксемика, хрономика, артефакт, обоняние, эстетика, характер.

**KIRISH.** Soʻzlovchining tinglovchi bilan bevosita aloqa qilishida qoʻllanilib, nutq mazmunini toʻldiradigan imo-ishoralarni oʻrganuvchi tilshunoslikning maxsus fan sohasi paralingvistika deb ataladi. Paralingvistika nutqning taʼsirchanligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu haqda V.N.Teliya shunday deydi: „Paralingvistika soʻz maʼnosining ochilishiga xizmat qilish bilan birga ularda tinglovchini rom qilish xususiyati ham mavjud” [2]. Paralingvistik vositalarga oid tushunchalar ilk bor 1644-yili Angliyada D.Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qoʻlning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan. Uning ilmiy nazariyasi asosida 1650-1670-yillar oraligʻida I. Shlezinger, L.Namir, R.Berdvistel, E.Klim, U.Stokoyeva U.Belludji kabi olimlarning paralingvistik vositalarga oid ilmiy ishlari dunyoga kelgan. Keyinchalik noverbal muloqot fan, texnikaning taraqqiy etganligi va fanlararo munosabatning kengayishi sababli uning turli komponentlari yuzaga kela boshladi. Rus olimi I.Yakovlev[3] paralingvistik vositalarni 9 guruhga ajratganligini kuzatishimiz mumkin:

№	Paralingvistik vosita turi	Paralingvistik vosita mazmini
1.	Kinestika	tana harakati
2.	Vokalika	ovozning akustik xususiyatlari
3.	Fizik xarakteristika	gavda qismi shakli, oʻlchami
4.	Xaptika	tana qismiga teginish
5.	Proksemika	joylashuv manzili
6.	Xronomika	vaqt
7.	Artefakt	kiyinish, bezanish
8.	Olfaktika	hid bilish
9.	Estetika	musiqi, rang

Noverbal vositalar madaniyatlararo muloqotda milliylik va xususiylikni ifodalaydi. Ya'ni ma'lum bir ishora bir jamoada kommunikativ ma'no ifodalasa, boshqa bir jamoada bu hech qanday vazifa bajarmasligi mumkin. Masalan, xayr ma'nosini ifodalash uchun ruslar kaftini orqaga qilib, vertikal holatda takror-takror silkitsa, italyanlar kaftini o'ziga qaratib, vertikal holatda silkitadi. Yoki ingliz millatiga mansub bo'lganlar mashina to'xtatish uchun bosh barmog'ini tikka, qo'lini musht qilsa, rus va o'zbeklar orasida bu kinetik belgi yaxshi degan ma'noni beradi[4]

Ammo dunyoda muloqotdagi asosiy imo-ishoralar bir-biridan farq qilmaydi. Odamlar xursand bo'lganda tabassum qiladilar, qayg'uli holda bo'lganda qoshlarini chimiradilar, g'azablansa jahldor qiyofada ko'rinadilar. Ko'pgina mamlakatlarda bosh chayqash „ha“ yoki tasdiqni anglatadi. Bu tug'ma imo-ishoralar bo'lib ko'rinadi, chunki u kar va ko'r odamlar tomonidan ham foydalaniladi. Rad etish yoki kelishmovchilikni bildirish uchun bosh chayqash ham barcha uchun umumiy sanaladi.[1]

Quyidagi gapda *bosh irg'amoq* konstruksiyasi *tasdiq* ma'nosini ifodalovchi imo-ishorani ifodalaydi: Siz shahzoda Mirzo Abdullatif taxt-u toj ishqida Movarounnahrda bostirib kirganidin voqifdursiz? Chol *bosh irg'adi*. (Odil Yoqubov)

Agar ushbu matn bolgar tiliga tarjima qilinish zarurati tug'ilganda mazkur birikma butunlay teskari ma'noni, ya'ni bu xabardan voqif bo'lmaganlik ma'nosini ifodalaydi. Chunki bolgar tilida bosh irg'amoq inkor ma'noni bildiradi.

Ayrim paralingvistik vositalar ma'lum bir xalqning muomala qoidalari bilan ham bog'liqdir. Jumladan, ta'zim qilish, qo'lini ko'ksiga qo'yish, qo'l qovushtirish o'zbek va tojik xalqlari o'rtasida keng tarqalgan. Masalan: Bayramxon unga *ta'zim qilib*, Humoyunning muhri bosilgan maktubni uzatdi (Pirimqul Qodirov). Ushbu gapda qo'llangan ta'zim qilmoq *iltifot va hurmat* ma'nolarini anglatib kelgan.

Ali Qushchi *qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi*: – Ming-ming rahmat sizga, vallomat. (Odil Yoqubov). Mazkur gapda *qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilmoq* imo-ishorasi *minnatdorlik* ma'nosini ifodalagan.

Madaminxo'ja o'tirgan yeridan xiyol qo'zg'aldi-yu, qo'l qovushtirdi: –Xush kelibsizlar. (Mirzakalon Ismoilij)

Badiiy asarda personajlarning ichki hissiyotlarini yorqin ifodalash maqsadida yozuvchilar tomonidan turli stilistik vositalardan keng foydalaniladi:

Bufetchi Salimjon akaning o'rniga o'tirib, tushuntirish xati yoza boshladi. Avval *qo'llari qaltirab*, ishi yurishmadi, yozganining ustidan o'chiraverdi. (Xudoyberdi To'xtaboyev).

Mazkur jumlada badiiy personajning asabiylashish holatini aniqroq aks ettirish, ochib berish maqsadida *qo'llari qaltirab* birligi ishlatilganini ko'rishimiz mumkin.

*U seskanib, yuragi jizillab ketdi* –Nima qilyapsan? (Nabijon Hoshimov)

O'sha kunni eslasam, hozir ham *yuragim orqamga tortib ketadi*.(Xudoyberdi To'xtaboyev) .

Yuqoridagi har ikki misolda ham yurak leksemasi qatnashgan „yuragi jizillab ketdi” va „yuragi orqaga tortib ketdi” paralingvistik vositalari qo'llanilgan bo'lib, ular yordamida personajning qo'rquv holati ifodalangan.

Iste'dodli yozuvchi M. Mansurovning «Mangu jang» romanidan olingan quyidagi matnda personaj xususiyati uning xatti-harakatlari orqali ochilgan va bu harakatlar obrazning turli qirralarini ochib berishga xizmat qilgan: Burxon to'kis *to'lg'anadi, zarda bilan gapiradi, betoqatlanadi, g'azabi qo'ziydi, jahl bilan ko'krigiga mushtlaydi*. Akbar polvon esa do'stining bunday harakatlariga qarama-qarshi o'laroq „*bamaylixotir gapiradi, iljayadi, kuladi, jiddiylashib, bosiqlik bilan uning ayblarini yuziga aytadi*”.(M.Mansurov)

Matndagi verbal ifodaning kinetik ko'rinishi inson hissiyotining harakatlarda namoyon bo'lishidir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, paralingvistik vositalar nutq segmentlari tarkibiga kirmay, uni kuzatib boradigan va qòshimcha mazmun yuklaydigan vositalar sirasiga kiradi. Nutqda unga bo'lgan ehtiyoj turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, suhbatdoshlarning masofasi uzoq bo'lsa, ularning fikrlarini atrofdagi kimsalar eshitmasligi uchun noverbal vositalardan foydalaniladi. Shuningdek, kuchli shovqin bo'lib, tovush yetkazish imkoniyati qiyinlashsa imo-ishora va mimikaga ehtiyoj seziladi. Badiiy asarda paralingvistik vositalardan foydalanish muloqotning jonli bo'lishini ta'minlaydi, axborot uzatishni osonlashtiradi, personajlarning xarakteri, ruhiy holatini aks ettirishda muhim ahamiyatga egadir.

## FOYDALANILGAN

### ADABIYOTLAR:

1. Abdurazzakova M.Y. Asosiy aloqa imo-ishoralari va ularning kelib chiqishi. Eurasian journal of technology and innovation Volume-1, Issue-5, 2023. №2.
2. Ahmedov H. Paralingvistik (imo-ishoraga asoslangan) frazeologizmlar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME-2, ISSUE-2, 2021.
3. Mirzayeva D.I, Xolmatova Z.A. Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati. Fars Int J Edu Soc Sci Hum Volume-10, Issue -11, 2022.
4. Nurmonov A. O'zbek paralingvistik vositalari//Tanlangan asarlar. 1-jild. –T: Akademiya nashri,2012.
5. Qodirov P. Humoyun va Akbar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. Raxmonova A.U. Badiiy personajlar hissiyotlarini namoyon etishda imo-ishoralar, tana harakatlariga oid leksemalarning stilistik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022. №12.
7. Saidxonov M. Kinemalarning badiiy matnda ifodalanishi. Ilmiy axborotnoma ADU,2009. №3.

8. Toirova G., Oripova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy -madaniy xususiyatlari, Google schoolor jurnali, 2024. –B. 96-100
9. Toirova G., Oripova P. Gratitude expresses pragmatic meanings ,Published March 2, 2024, Multidisciplinary and Multidimensional journal ,- B.280-284
- 10.Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, “Akademnashr”, 2013.
- 11.Yo‘ldoshev Q. Qodirov V. Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot, 9-sinf . Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf service, 2014.